UO‘K 930.2:908(575.146) “19/20”

BUXORODA TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK SOHASIDAGI TADQIQOTLAR TARIXSHUNOSLIGI (XX ASR VA XXI ASR BOSHLARI)

Boltayev A’zam Homidovich,
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
azam.boltaev.2015@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Buxoroda tarixiy o‘lkashunoslik shakllanish va rivojlanishiga doir tadqiqotlar haqida fikr yuritilgan bo‘lib, mazkur tadqiqotlar tahlili Buxoroda ilmiy jamiyat, o‘lkashunoslik muzeyining tashkil topishi va uning maqsad-vazifalari, o‘lkashunoslik muzeylarining ilmiy faoliyati, maktab bilan hamkorligi, mahalliy kolleksionerlar va o‘lkashunoslarning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq masalalar to‘laqonli o‘z aksini topmaganligini ko‘rish mumkin. Arxeolog-o‘lkashunoslarning o‘lka tarixiga doir ilmiy faoliyatlari birmuncha yoritilgan bo‘lishiga qaramay, ularning o‘lka tarixida muhim o‘ringa ega ekanligi va tarixiy o‘lkashunoslikning asosiy sohasi ekanligi ta’kidlanadi. Tarixiy o‘lkashunoslikning uch turga, ya’ni ilmiy – davlat o‘lkashunosligi, jamoat o‘lkashunosligi va maktab o‘lkashunosligiga bo‘linishi hamda bu uch tur o‘zaro aloqador bo‘lib, ular bir-birini to‘ldirishi bu sohaning nechog‘lik zarurligini bildiradi. Tadqiqotlar natijasida olingan xulosalarga asoslanib yana bir turni qo‘shish taklifini kiritmoqdamiz, ya’ni yakka, alohida (individual) o‘lkashunoslikdir. Mazkur to‘rt turning Buxoro tarixiy o‘lkashunoslik yo‘nalishlariga xosligi va shu yo‘nalishlarda tadqiqotlarning olib borilishi bu sohaning rivojlanayotganligidan dalolat. Shularni hisobga olib Buxoroda tarixiy o‘lkashunoslikning shakllanishi va rivojlanishiga oid maxsus ilmiy tadqiqot yaratishga harakat qilindi.*

ИСТОРИОГРАФИЯ КРАЕВЕДЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В БУХАРЕ (XX ВЕК И НАЧАЛО XXI ВЕКА)

Аннотация. *В данной статье рассматриваются исследования, посвящённые формированию и развитию исторического краеведения в Бухаре. Анализ этих исследований показывает, что вопросы создания научного общества, организации краеведческого музея и его целей и задач, научной деятельности краеведческих музеев, их сотрудничества со школами, а также научной деятельности местных коллекционеров и краеведов не получили полного отражения. Несмотря на то, что научная деятельность археологов-краеведов, связанная с историей региона, освещена в определённой степени, подчёркивается их важная роль в изучении истории края и значение исторического краеведения как одной из основных отраслей. Отмечается, что историческое краеведение делится на три вида: научное (государственное), общественное и школьное краеведение. На основе выводов, полученных в результате исследований, мы предлагаем ввести ещё один тип – индивидуального (личного) краеведа. Наличие этих четырёх типов, характерных для историко-краеведческих направлений Бухары, а также проведение исследований в данных направлениях свидетельствуют о развитии данной области. В связи с этим была предпринята попытка создания специального научного исследования, посвящённого формированию и развитию исторического краеведения в Бухаре.*

HISTORIOGRAPHY OF LOCAL HISTORY STUDIES IN BUKHARA (XX CENTURY AND THE BEGINNING OF THE XXI CENTURY)

Abstract. *This article examines studies devoted to the formation and development of historical local studies (regional studies) in Bukhara. The analysis of these studies shows that issues such as the establishment of a scientific society, the organization of a local history museum and its goals and objectives, the scientific activities of local history museums, their cooperation with schools, as well as the scholarly work of local collectors and regional researchers have not been fully covered. Although the scientific activities of archaeologist-local historians related to the history of the region have been addressed to some extent, their important role in studying the region’s history and the significance of historical local studies as one of the main fields are emphasized. It is noted that historical local studies can be divided into three types: scientific (state), public, and school local studies. Based on the conclusions obtained from the research, we*

propose introducing an additional type – the individual (personal) local historian. The presence of these four types, characteristic of the historical and local history studies of Bukhara, as well as the conduct of research in these areas, indicates the development of this field.Therefore, an attempt has been made to create a specialized scientific study dedicated to the formation and development of historical local studies in Bukhara.

Kirish. O‘lkamizdagi tarixiy, madaniy va me’morchilik yodgorliklari jahon madaniy merosi namunalaridan sanalib, dunyo tarixida o‘zining alohida o‘rniga ega. Shunday muhim, nodir va qimmatli ahamiyatga ega moddiy va ma’naviy yodgorliklarni har tomonlama ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganadigan hamda tahlil qiladigan soha “Tarixiy o‘lkashunoslik” deb nomlanadi. O‘lkashunoslikning turlari ko‘p bo‘lib, ular ichiga geografik, iqtisodiy, demografik, ekologik va boshqalar kiradi.

Ma’lumki, tarix fanining tarkibiy qismi bo‘lgan tarixiy o‘lkashunoslikning asosiy vazifasi jamiyat rivoji umumiy qonuniyatlarini o‘rganish asnosida hududiy o‘ziga xoslik va xilma-xillikni aniqlashdan iboratdir.

Tarixiy o‘lkashunoslik ijtimoiy madaniy sohaning ko‘rinishi sifatida esa yana bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni ham bajaradi:

- o‘lkashunoslikning ilmiy-tadqiqotchilik vazifasi tabiiy, tarix va madaniyat sohalarida ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish va amalga oshirishga yo‘naltirilgan;

- hujjatlashtirish va yodgorliklarni asrash vazifasi ularni aniqlash, asrash, muzey va arxiv fondlarini, o‘lka tarixi va madaniyatining turli masalalariga oid ma’lumotlar bankini shakllantirish:

- ma’rifiy-tarbiyaviy vazifasi esa ta’lim va tarbiya sohasida muhim rol o‘ynab, tarixiy ongni shakllantirish, vatanparvarlik hissini tarbiyalash;

- tashkiliy vazifasi esa insonlarni birlashtirish, ularning e’tiborlarini o‘zlari yashab turgan hudud tarixini bilishga qaratish va ijodiy qiziqishlarini rag‘batlantirishdan iborat.

Tarixiy o‘lkashunoslik mahalliy tarixiy tajribaning o‘zlashtirilishi bilan bir paytda, madaniy, ma’naviy va tabiiy merosni o‘rganish, asrashga yo‘naltirilgan muhim faoliyatdir. Tarixiy o‘lkashunoslikning asosiy vazifalari esa uning tashkiliy jihatlari va shaklida, ya’ni o‘lkashunoslik jamiyatlari va muassasalari mavjudligida, ilmiy-tadqiqot faoliyat va amaliy ish yo‘nalishlari rivojida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda tarixiy o‘lkashunoslikni 3 turga, ya’ni

1) ilmiy – davlat o‘lkashunosligi;

2) jamoat o‘lkashunosligi;

3) maktab o‘lkashunosligiga bo‘linishini qayd qilish mumkin[1].

Tarixiy o‘lkashunoslikning bu uch turi o‘zaro aloqador bo‘lib, ular bir – birini to‘ldiradi.

Shu o‘rinda olib borilgan tadqiqotlar natijasida biz yana bir turni qo‘shish kerakligi taklifini bermoqchimiz bu yakka, alohida (individual) o‘lkashunoslikdir.

Davlat o‘lkashunosligi bilan Respublika tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish qo‘mitasi, muzeylar, Respublika Fanlar akademiyasi Tarix, Arxeologik tadqiqotlar instituti va markazi shug‘ullanadi [2].

Jamoat o‘lkashunosligi qishloq, ovul, tuman, shahar va viloyat hududidagi tarixiy obidalarni saqlash va asrash ishlariga boshchilik qilish bilan birga joylarda istiqomat qilayotgan xalqlarning kelib chiqishi, turmush tarzi, urf-odati kabi masalalarni o‘rganadi. Jamoat o‘lkashunosligiga havaskor arxeologlar, kolleksionerlar, o‘lka tarixini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi jamiyat va uyushmalar kiradi.

Maktab o‘lkashunosligi esa tarix, geografiya fanlari o‘qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil qilinadi. Maktab o‘lkashunosligi a’zolari eng faol o‘quvchilar orasidan tanlab olinadi. Ular o‘lka tarixiga doir arxeologik, etnografik, toponimik, numizmatik materiallarni to‘plash bilan shug‘ullanib, maktabda o‘lkashunoslik burchagini tashkil etishda tashabbuskor bo‘ladilar.

Yakka, alohida (individual) o‘lkashunoslik bunda o‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i, shahri va o‘lkasining tarixi, toponimikasi hamda topografiyasini mustaqil o‘rganish, o‘z hisobidan dala tadqiqotlari tashkil qilish, olingan ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalari va jurnallarda yoritish tashkil qiladi. Bunday insonlar o‘lka tarixi va yodgorliklariga befarq bo‘lmay vatanpavarlik nuqtai nazaridan o‘z o‘lkasini o‘rganadi.

Tarixiy o‘lkashunoslik muammosini o‘rganish tarix fanida shakllangan insonlarning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqadorligi, xalq hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy sohalaridagi o‘zgarishlar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish imkonini beradi. Shuni ta’kidlash joizki, tarixiy o‘lkashunoslik ijtimoiy gumanitar ta’limning muhim qismi bo‘lib, o‘lka tarixiga oid bilimlarni shakllantiradi. Tarixiy o‘lkashunoslik jamiyat taqdirida uning tarixiy xotirasini, ajdodlar merosiga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishda beqiyos o‘rin tutadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Tarixiy o‘lkashunoslik tarixiga nazar tashlasak bu atama uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Manbalarda qayd qilishinicha, o‘lkani o‘rganish ishlari bizning o‘lkamizda X-XII

asrda boshlangan bunga misol sifatida Abu Ja'far Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarini, Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'oti turk" asarini, Abu Rayhon Beruniyning "Osor-ul boqiya" asarini, XVI asrda yaratilgan Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarlarini tarixiy o'lkashunoslik sohasiga oid deb ta'kidlash mumkin. O'sha davrda tarixiy o'lkashunoslik sohasi hali taraqqiy etmagan va bu atama hali muomalaga bo'lmagan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, bu asarlarni tarixiy o'lkashunoslik va o'lka tarixini targ'ib qiluvchi manbalar sifatida e'tirof etish mumkin.

O'lkamiz tarixi va o'lkashunoslik sohasidagi ishlar XIX asr va XX asr boshlarida ham davom etgan buni shu davrda yozilgan asarlarda ko'rish mumkin. Masalan, Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoe", "Risolai muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang'itiya" asari, Muhammad Ali Baljuvoniyning "Tarixi nofeiy" asari, Abdurauf Fitratning "Hind sayyohi" qissasi, Mirza Salimbekning "Kashkuli Salimiy" asari, Sadriddin Ayniyning "Buxoro mang'it amirligining tarixi" va boshqa asarlarida o'lka tarixi hamda Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayoti ifodalangan. Shuningdek, shu davrda nashr qilingan gazetalar "Buxoro ahbori", "Ozod Buxoro", "Turkiston", "Oyina", "Najot" va boshqa ro'znomalarda o'lkadagi tarixiy yodgorliklari haqida maqolalar nashr qilingan

XX asrning 20-yillarida nashr qilingan "Maorif va o'qituvchi" jurnalida Buxoro tarixiy yodgorliklari, eski binolari, shahar topografiyasi kabi masalalarga oid Muso Saidjonov, Sadriddin Ayniy maqolalari va Sh. Rahimiyning o'lkashunoslik darslari haqidagi maqolalari nashr qilinadi[3]. Shuningdek, bu davrda Buxoroda muzey tashkil qilinadi va osori-atiqalar jamlana boshlandi hamda bu soha o'lkashunoslik yoki tarixiy o'lkashunoslik deya atala boshlandi.

Buxoroda tarixiy o'lkashunoslik holati, shakllanishi, rivoji va uning turli jihatlari qariyb bir asr davomida yaratilgan katta hajmdagi tadqiqotlar – maqolalar, risolalar va monografiyalarda o'z aksini topdi. Adabiyotlar obzorida bunday xronologik doiralarning belgilanishi O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi bilan ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy, shart-sharoitlarning tadqiqotlar mazmuniga ta'siri va metodologik paradigmalarning o'zgarishi bilan izohlanadi.

Tarixiy o'lkashunoslikning turli yo'nalishlariga oid ilmiy tadqiqotlar, adabiyotlarning vujudga kelishi bevosita bu sohaning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida, uning amaliy natijasi sifatida kechdi. Buxoroda 1920-1930-yillari o'lka xalqlari tarixi, madaniyati va etnografiyasiga oid tarixiy bilimlarning to'plana borishi turli ilmiy jamiyatlar faoliyatini o'rganilishi[1], muammolar doirasining belgilanishi bilan tavsiflanadi.

Buxoroning tarixiy topografiyasi[4] masalasi, tarixiy obidalar holati va ajdodlarga yetkazishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar, o'lkashunoslikdagi ahamiyati bevosita bu sohaga aloqador bo'lgan shaxslar va tashkilotchilar qalamiga mansub bo'lgan maqolalarda[5] mujassamlashdi. Shuningdek moddiy madaniyat yodgorliklarini saqlash ishini tashkil etilishida Buxkomstarisning tajribasi V.A.Shishkinning[6] maqolasida tahlil qilinadi. Buxoro vohasining arxeologik o'rganilishini o'lkashunoslik rivojida tutgan o'rni bu tadqiqotchining amaliy faoliyati natijasi sifatida yana bir qator maqolalarida[7] o'z aksini topdi.

Buxoroda o'lkashunoslik ishining tashkil etilishida katta o'rin tutgan Buxoro muzeyi faoliyatiga oid P.E.Kornilovning maqolalari bu soha tarixini o'rganishda alohida ahamiyatga ega[8]. Bu muallifning Buxoro hunarmandchiligi tarixiga doir bir qator maqolalari [9] mavzuni yoritishda ma'lum xilma xillikni ta'minlaydi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Buxoroni tarixiy o'rganish ancha susayganini kuzatishimiz mumkin. Urush sharoiti bilan bog'liq bo'lgan moddiy qiyinchiliklar ushbu mavzuga oid tadqiqotlar keskin kamayganligida ko'rinadi.

Bu masalaga e'tibor urushdan keyin yana ortdi va buni o'lkashunos olim T.F. Gelax faoliyati misolida ko'ramiz. 1940-yillarning 2-yarmida T.F. Gelaxning "Krasnaya Buxara" va "Buxoro haqiqati" gazetasi sahifalarida Buxorodagi tarixiy obidalar holati va ularga sovet davlatining munosabati haqidagi turkum maqolalari[10] e'lon qilindi.

1940-yillar oxirida O'rta Osiyo tarixiy yodgorliklari haqidagi umumlashma asar[11] nashr etildi va unda Buxoro obidalariga alohida e'tibor qaratildi. G.A.Pugachenkova va L.I. Rempel risolasi[12] hajmining kichikligiga qaramay ma'lumotlarning tizimlashtirilgani va Buxoro tarixiga oid ilk maxsus tadqiqot ekanligi bilan diqqatga sazovordir.

1950-yillarning 2-yarmidan o'lka tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar jonlanganligining natijalarini 1960-yillarga kelib qator maqolalar, risola va monografik asarlar shaklida nashr qilinganligida ko'rish mumkin.

Bunga misol qilib, Buxoroda madaniy qurilishning amalga oshirilishi tarixiga bag'ishlangan maxsus dissertatsion tadqiqotda tarixiy o'lkashunoslikka doir masalalar ham o'rganildi[13]. Buxoro arxitektura yodgorliklari haqidagi jiddiy tadqiqotlar vujudga keldi[14]. Buxoro shahri tarixiy topografiyasini o'rganishga qiziqish ortdi[15]. Shuningdek, o'lka tarixiga oid bir qator asarlarning yaratilishi bunga dalildir.

[1] Bu yerda gap 1921-yilda tuzilgan "Tarixi anjuman" jamiyati haqida ketyapti.

Tadqiqot metodologiyasi. Buxoroda tarixiy o‘lkashunoslik sohasi rivojida muhim o‘rin tutgan muzeylar faoliyati[16] va muzeyshunoslik yo‘nalishidagi asarlarning[17] yaratilishi o‘rganilayotgan soha muammolarini yoritishda o‘z hissani qo‘shdi.

O‘zbekistonda tarixiy o‘lkashunoslik rivojiga katta hissa qo‘shgan arxeolog, numizmat va kolleksionerlar faoliyatining tadqiqotlar doirasidan joy olishi soha rivojidan dalolat beradi[18]. Bu yo‘nalishda B.V.Luninning ishlari alohida diqqatga sazovordir[19]. Buxoro tarixiy o‘lkashunosligining o‘rganilishida tarixchi olim, davlat arbobi M.Saidjonov faoliyati, uning nomi oqlanganidan so‘ng tadqiqotchilar izlanishlari mavzusi bo‘ldi[20].

1970-yillarda Buxoroning yoshini aniqlash munosabati bilan arxeologik qazuv ishlari yangilanib, uning natijasi o‘laroq bir qator maqolalar e’lon qilindi[21].

Buxoro tarixini o‘rganishda O.A.Suxaryeva ilmiy faoliyati alohida e’tiborga sazovordir. Uning asarlari Buxoro xonligi shaharlari, undagi maishiy hayot, hunarmandchilik, etnografiyasi, san’at tarixini yoritishda salmoqli hissa qo‘shgan tadqiqotlardandir[22].

Buxoro tarixining sotsialistik davriga doir tadqiqotda[23] tarixiy o‘lkashunoslikka maxsus e’tibor qaratilgan bo‘lmasa-da undagi ma’lumotlar sohani o‘rganishda ahamiyat kasb etadi.

1960-1980-yillarning xususiyati shundaki, Buxoro tarixiga doir jiddiy monografik tadqiqotlar vujudga kelib, ularda o‘lkashunoslikning turli jihatlari qamrab olindi.

Ayni paytda shuni ta’kidlash joizki, sovet tarix fanida O‘zbekistonda o‘lkashunoslik tarixini yaxlit tarzda yorituvchi tadqiqot yaratilmagan edi. 1974-yilda B. Jabborovning nomzodlik dissertatsiyasi [24] bu masalaga doir maxsus tadqiqot ekanligini ta’kidlagan holda, uning xronologik doirasi 1918-1932-yillarni qamrab olib, keyingi jarayon haqida ma’lumot beruvchi boshqa ishlar mavjud emas. Bu bo‘shliqni ma’lum ma’noda tarixiy o‘lkashunoslik rivoji haqida umumiy tushunchalarni beruvchi R. Nabiyevning oliy o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan darsligi [25] o‘ldirdi.

Sovet tarix fanida Buxoro tarixi, arxeologiyasi, yodgorliklari, toponimikasiga oid turli mazmundagi ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar yaratilganiga qaramay, uning o‘lkashunosligi haqida yaxlit tasavvur hosil qiluvchi maxsus tadqiqot amalga oshirilmadi. Bu davr faniga xos bo‘lgan g‘oyaviy ko‘rsatmalar ham ushbu mavzudagi tadqiqotlar mazmunida aks etdi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach jamiyat hayotining barcha jabhalarida bo‘lganidek tarix fani va tarixiy tadqiqotlar mazmunini ham tubdan o‘zgartirdi. Yangi tarixiy sharoitda tarixchilar hamjamiyati oldiga tadqiqotlar metodologik asosini yangilash, o‘zbek xalqining haqqoniy tarixini yaratish kabi muhim vazifalar qo‘yildi [26]. Tarix fani nazariy-metodologik muammolari [27], sohalari rivojiga doir tadqiqotlarda tarixiy o‘lkashunoslik masalalariga ham e’tibor qaratildi [28]. Fanning holati, uning tarkibiy qismi bo‘lgan tarixiy o‘lkashunoslik tarixini tahlil qilish orqali, uning zamonaviy bosqichdagi vazifalariga doir mulohazalar taqdim qilindi [29]. Tarixiy o‘lkashunoslik rivojida etnografik tadqiqotlarning ahamiyati va o‘rni ko‘rsatildi[30].

Mustaqillik yillarida jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o‘rin tutgan shaharlar tarixini o‘rganish ustuvor mavzulardan biriga aylandi. Qadimiy shaharlar yubileylarini nishonlash va bu bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro ilmiy anjumanlarning o‘tkazilishi ilmiy tadqiqotlar rivojida o‘ziga xos rag‘batlantiruvchi omil bo‘ldi. Dunyo ilmiy jamoatchiligi e’tiborini tortdi.

1997-yilda Buxoroning 2500 yillik yubileyi nishonlanishi ilmiy tadqiqotlarni faollashtirib, yangi natijalarga erishildi. Olimlar Buxoro tarixining turli jihatlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirdilar [31]. Bunday faoliyat samarasi natijasida keng ilmiy jamoatchilikka Buxoroning jahon sivilizatsiyasi tizimida tutgan o‘rni, qadimiy tarixiga bag‘ishlangan ilmiy, ilmiy-ommabop mazmundagi ishlar taqdim etildi [32].

Mustaqillik yillarida muzeylar faoliyati, ularning aholi tarixiy ongini shakllantirishdagi ma’rifiy vazifalari, zamonaviy rivojlanishi muammolarini hal qilishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan masalalar tarixchilar izlanishlarida muhim o‘rin oldi. O‘lkashunoslik muzeylarining tarixiy o‘lkashunoslikda ma’rifiy yo‘nalishdagi markaz sifatidagi roliga alohida e’tibor qaratildi [33].

Buxoro muzeylari faoliyatiga doir tadqiqotlar bevosita o‘lkashunoslik sohasining holati haqidagi ma’lumotlarni mujassamlashtirib, mavzu tarixshunosligini boyitishga xizmat qildi [34]. Turli sohalar tarixi muzeylari, uy-muzeylari haqidagi maqolalarda mualliflar [35] bu muassasalar ekspozitsiyalari haqida batafsil bayon qildilar.

Yana bir qator maqolalar va risola[36] muzey ekspozitsiyalarining mavzuviy mazmuni tahliliga bag‘ishlanib, ularda Buxoro o‘lkashunosligi masalalari ham o‘z aksini topdi.

Buxoro arxeologik tadqiqotlar obyekti sifatida doimo olimlar, arxeologlar diqqat e’tiborida bo‘lib kelgan. Bu hududida olib borilgan qazuv ishlarining natijalari bir qator tadqiqotlarda mujassamlashdi. Albatta, bu o‘rinda Y.G. Nekrasovaning [37] ushbu hududda olib borgan ishlari Buxoroning arxeologik

o‘rganilishida alohida o‘rin tutdi. F.H. Qosimov qalamiga mansub bir qator maqolalar [38] Buxoroni arxeologik o‘rganishda, izlanishlarni tashkil etishda darg‘alik qilgan akademik Y.G‘ulomov xizmatlarini yoritishga bag‘ishlandi. Shuningdek Buxoro arxitektura yodgorliklarini o‘rganish ham muhim mavzular qatoridan joy oldi [39]. Qo‘lga kiritilgan natijalar Buxoro tarixiy o‘lkashunosligi tarixini yoritishda salmoqli hissa bo‘lganligini ta’kidlash joizdir.

Mustaqillik yillarida sovet qatag‘on siyosati qurboni bo‘lgan milliy ziyolilar nomining oqlanishi ular ilmiy merosiga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirib, faoliyati ahamiyatini ko‘rsatish imkonini berdi. Buxoro tarixini o‘rganishda va uni avlodlarga yetkazishda juda katta xizmat qilgan tarixchi, o‘lkashunos va davlat arbobi M. Saidjonov shaxsi tarix yo‘nalishi tadqiqotlari mavzusi bo‘ldi [40].

Yana bir qator maqolalar va risolada [41] o‘lkashunos olimlarning ilmiy merosi va Buxoroda olib borgan faoliyati bilan bog‘liq masalalar tahlil qilindi. Bu albatta avlodlar tomonidan ularning o‘lkani o‘rganishdagi xizmatlari e’tirofi hisoblanadi.

Buxoro o‘lkashunosligida shu yurt ziyolilari qalamiga mansub ishlar, noyob asarlar to‘plangan kutubxonalarining o‘rni va roli tarixchilar tomonidan o‘rganildi [42]. Tarixiy manbalarni to‘plash, o‘rganish, asrash o‘lka tarixini yoritishdagi ahamiyati kabi masalalar bir qator ishlarda aks etdi[43]. Buxoro amiri Muzaffarning o‘g‘illarini tarix sohasidagi faoliyati ilgari o‘rganilmagan mavzu bo‘lib, tarixchilar bu mavzuni yoritishga qo‘l urdilar [44].

Bir guruh olimlar tomonidan yaratilgan, Buxoroning tarixiy o‘lkashunosligida viloyat va tumanlar tarixiga doir yaratilgan qisqacha ma’lumotnoma turkumi keng kitobxonlar auditoriyasi uchun zarur bo‘lgan tadqiqotligi bilan e’tirofga sazovordir [45].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, tarixiy o‘lkashunoslik manbalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga pedagog olimlar maxsus murojaat qildilar [46].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Mustaqillik yillarida tarixiy o‘lkashunoslik masalalarining turli jihatlarini yoritishda, unga doir bilimlarni ommalashtirishda davriy nashrlar muhim o‘rin tutdi. Yangi tashkil etilgan “Moziydan sado”, “O‘zbekiston tarixi”, “Buxoro mavjlari” jurnallari sahifalarida tarixchi olimlar tomonidan bu mavzuga doir maqolalar muntazam ravishda chop etildi.

Bu davrning yana bir xususiyati mintaqa tarixini o‘rganishning dolzarblashuvi bo‘ldi. Akademik Ya. G‘ulomov nomidagi “O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi” Respublika ilmiy seminarining mavzulari va muntazam ravishda viloyatlarda o‘tkazilishi tarixchilar e’tiborini bevosita o‘lkashunoslik muammolariga tortdi [47]. Buxoro tarixi masalalari(qadimdan to hozirgancha) ilmiy anjumanlari va “Xorazm o‘qishlari”, “Samarqand o‘qishlari”, “Qo‘qon o‘qishlari”ni tashkil etilishi bu hududlar jahon sivilizasiyasi tizimidagi o‘rnini yoritish, arxeologiyasi, etnografiyasi, toponimikasi, ijtimoiy tarixi masalalarini o‘rganishni rag‘batlantirdi. Bu ilmiy anjumanlar tarix fani dolzarb muammolari doirasini aniqlash, tadqiqotlar yo‘nalishlarini belgilashda muhim vazifalarni bajarib kelmoqda.

Katta tarixiy davr mobaynida olib borilgan tadqiqotlar tahlili o‘lkashunoslikning qator jihatlari turli darajada o‘rganilgani, o‘lkashunos, tarixchi, arxeologlar izlanishlari va hamkorliklari natijasida bu soha rivojida ma’lum muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritilganini namoyon qildi.

Ta’kidlash joizki, hozirga qadar fundamental fan bilan hududlardagi o‘lkashunoslik harakatining o‘zaro aloqasini yorituvchi, o‘lkashunoslikdagi evolyusion jarayonlar tahliliga bag‘ishlangan yaxlit tadqiqot amalga oshirilgan emas. O‘zbekiston jamiyati hayotida madaniy va ma’naviy an’analar vorisiyligi mavjud ilmiy tajribaga murojaat qilishni yanada chuqurroq taqozo qilib, tarix fani zamonaviy bosqichida hududlar tarixi moddiy, madaniy va ma’naviy qadriyatlar yaxlit majmui sifatida o‘rganilishi o‘lkashunoslik tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanishi lozim.

Tarixiy o‘lkashunoslik fan sifatida yana bir shunday muhim xususiyatga egaki, uni vujudga kelishida va o‘zlashtirishda tadqiqotchi mutaxassislar bilan bir paytda keng omma ishtirok etadi, u mazmun mohiyati bilan ommalashgan soha. Tarixiy o‘lkashunoslik bilan shug‘ullanish jarayonida o‘z yurtiga muhabbat, faxr va g‘urur hissi vujudga kelishi bilan bir paytning o‘zida, odamlarda yashab turgan joyi haqidagi bilimlarga ega bo‘lish imkoni paydo bo‘ladi. Ma’lum ma’noda ularning ishtiroki orqali muzey va arxiv fondlari ham yangi materiallar bilan boyitib boriladi. So‘nggi yillarda mintaqaviy tarixni o‘rganishga e’tiborning kuchaygani munosabati bilan, o‘lkashunoslik tadqiqotlarining ham ahamiyati oshib borayotganligini ta’kidlash joizdir.

Tarixiy o‘lkashunoslikni o‘rganish zarurati uning madaniyat va fanning ajralmas qismi ekanligi bilan belgilanadi. O‘lkashunoslik tadqiqotlari natijalaridan tarixiy mavzulardagi fundamental asarlarda foydalanilgan. O‘lkashunoslik muhim ijtimoiy hodisa bo‘lib uning tarixini o‘rganish bu hodisaning mohiyatini anglash, rivojlantirish, turli ilmiy yo‘nalishlarni ishlab chiqish, muzeylar, maktab va oliy ta’lim muassasalari ta’lim tarbiya ishlari yangi tashkiliy shakllarini yaratishda, jamiyat tarixiy ongi va xotirasini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, tarixiy o‘lkashunoslik sohasi bizlarda azaldan bo‘lgan, o‘lka tarixi, yodgorliklari, joy nomlari, joylashuv topografiya masalalari qayd qilingan manbalarda o‘z aksini topgan. U davrda bu atama tarixiy o‘lkashunoslik deb aytilmagan. Bu atama XX ming yillik 20-yillaridan keyin o‘lkada muzey sohasi, osori-atiqalar jamlaydigan va o‘rganadigan jamiyatlarning paydo bo‘lishi, arxeologik tadqiqotlarning paydo bo‘lishi bilan hamohang kirib keldi. Shuningdek, Buxoroda ham o‘lka tarixini yozish uni o‘rganish ishlari azaldan bo‘lgan ammo bu ishlar tarixiy o‘lkashunoslik atamasi bilan atalmagan va bu atama o‘tgan asrning 20-yillaridan keyin muomalaga kiritilgan. Bir asr davomida Buxoroda tarixiy o‘lkashunoslik sohasiga oid tadqiqotlar jamlangan.

ADABIYOTLAR:

1. *Набиев Р. Тарихий ўлкашунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 156 б;*
2. *Набиев Р. Тарихий ўлкашунослик (Ўлкани ўрганишнинг асосий манбалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 8.*
3. *Раҳимий Ш. Этнография коллекцияси тўплаш ҳақида // Маориф ва ўқитувчи. 1925. №3.75-б.*
4. *Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии средневековой Бухары //Сборник Туркестанского Восточного института в честь проф. Э.А. Шмидта. – Ташкент, 1923. – С.148-157.*
5. *Саиджонов М. Бухоро шаҳри ва эски бинолари // معارف وه اوقوتغوچی (Маориф ва ўқитувчи журнали). 1-қисм. – Тошкент, 1927. - № 3-4. – Б. 30-35; Шу муаллиф. Бухоро шаҳри ва эски бинолари // معارف وه اوقوتغوچی (Маориф ва ўқитувчи журнали). 2-қисм. – Тошкент, 1927. № 9-10. – Б. 52-56; Умняков И.И. Архитектурные памятники Средней Азии. Исследование. Ремонт. Реставрация. 1920-1928 гг. – Ташкент, 1929. – 40 с.;*
6. *Шишкин В.А. Архитектурные памятники Бухары. – Ташкент: Изд-во комитета наук УзССР, 1936. – 100 с.; Ғуломов Я.Ғ. Тарихий обидалар (Самарқанд ва Бухоронинг тарихий меъморчилик обидалари) //Социалистик фан ва турмуш. 1939. №12. – Б.23-25; Шу муаллиф. Ўзбекистонда қадимий обидаларни ўрганиш //Социалистик фан ва турмуш. 1939. №1. – Б. 20-22.*
7. *Шишкин В.А. Из опыта работы Бухкомстариса по охране памятников материальной культуры (1923-1933)//Проблемы истории докапиталистических обществ. – ГАИМК, 1934. – С. 22-45.*
8. *Шишкин В.А. Археологические работы 1937 г. в западной части Бухарского оазиса. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1940. – 50 с.; Шу муаллиф. Археологическое изучение Бухарского оазиса /Научная сессия Академии наук УзССР. – Ташкент: Издательство Академии наук, 1947. – С. 401-414.*
9. *Корнилов П.Е. Государственный Бухарский музей // Советский музей. – М., 1931. №4. – С. 92-96; Шу муаллиф. Из новых работ государственного Бухарского музея //Советский музей. – М., 1932. №4. – С. 94; Шу муаллиф. Большой краеведческий музей в Бухаре //Красная Бухара. – Бухара, 1941, 20 март.*
10. *Корнилов П.Е. Изучение искусства Средней Азии. – Бухара, 1932. – 10 с.; Шу муаллиф. Шу муаллиф. Бытовое искусство Средней Азии. – Бухара, 1932. –27 с.; Шу муаллиф. Чеканное производство Бухары. –Бухара, 1932. – 37 с.;*
11. *Гелах Т.Ф. Разрушаются стены Арка //Красная Бухара. 1945, 7 февраль. №22; Шу муаллиф. Медресе Улугбек //Красная Бухара. 1945, 29 июль. №144; Шу муаллиф. Мечеть и медресе Гаукушан //Красная Бухара. 1945, 9 сентябрь. №174; Шу муаллиф. Чашма-Айюб //Красная Бухара. 1945, 17 июня. №116; Шу муаллиф. Сайфиддин Бохарзи памятник XIII века //Красная Бухара. 1945, 27 июня. №123; Шу муаллиф. Баян-Кули-хан //Красная Бухара. 1945, 27 июль. №130; Шу муаллиф. Мири Араб //Красная Бухара. 1945, 15 август. №157; Шу муаллиф. Бухоронинг минори //Бухоро ҳақиқати. 1945, 19 август. №155.*
12. *Засыпкин Б.Н. Архитектура Средней Азии. – М.: Изд. Академии архитектуры СССР, 1948. – 160 с.*
13. *Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. Бухара. – М.: Изд. Академии архитектуры СССР. 1949. – 66 с.*
14. *Рахмонов Н.М. Культурное строительство в Бухаре в 1925-1932 годах. Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1961. – 285 с.*
15. *Булатов М.С. Построение архитектурной формы мавзолея Саманидов// Искусство зодчих Узбекистана. – Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1962. – С. 45-74; Шу муаллиф. Мавзолей Саманидов – жемчужина архитектуры Средней Азии. – Ташкент: Изд.*

литературы и искусства имени Г. Гуляма, 1976. – 128 с.; Шишкин В.А. Варахша. – М.: Издательство Академии наук СССР, 1963. – 250 с.; Пугаченкова Г.А. Тим ва тоқлар. Бухоронинг архитектура ёдгорликлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1965. – 8 б.; Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк Бухары. – Душанбе: Дониш. 1972. – 164 с.

16. Ремпель Л.И. Из истории градостроительства на Востоке (материалы по планировке старой Бухары) //Искусство зодчих Узбекистана. – Ташкент: Изд. Академии наук Узбекской ССР, 1962. – С. 211-266; Муҳаммаджанов А.Р. "Наводир" муаллифининг нодир харитаси //Фан ва турмуш. 1964. № 8. – Б. 14-16; Шу муаллиф. Историко-топографический план Бухары Ахмада Дониша //Общественные науки в Узбекистане. 1965. № 5. – С. 31-42; Муҳаммаджанов А.Р., Беленицкий А.М., Бентович И.Б., Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. – Ленинград: Наука, 1973. – С. 232-256; Мирзаахмедов Дж. К изучению исторической топографии Бухары района мавзолея Саманидов //История материальной культуры Узбекистана. Вып. 19. – Ташкент: Наука, 1984. – С. 221-237.

17. Йўлдошев Н. Бухоро музейи //Фан ва турмуш. 1959. №12. – Б. 32; Курбанов Г.Н. Бухарскому краеведческому музею-60 лет //Общественные науки в Узбекистане. 1983. № 1. – С.64-65; Нуруллаев А. Музей истории колхоза //Из истории культурного наследия Бухары. Вып. 1. – Ташкент: Наука, 1989. – С.128-130; Альмеев Р. Из истории Бухарского государственного архитектурно-художественного музей-заповедника //Из истории культурного наследия Бухары. Вып. 1. – Ташкент: Наука, 1989. – С. 3-7; Пўлатова М. Новые материалы к истории БНСР (Из материалов фондов Бухарского государственного архитектурно-художественного музей-заповедника) //Из истории культурного наследия Бухары. – Вып. 1. – Ташкент: Наука, 1989. – С.119-127; Тўраев Х.Три частных коллекции документов, поступившие в Бухарский музей //Тезисы докладов и сообщений Всесоюзной конференции "Бартольдовские чтения-1990". – М.: Наука, 1990. – С.77-78;

18. Жабборов Б. Ўлкашунослик музейи //Совет мактаби. 1970. № 7. – Б.53-54; Садыкова Н.С. Музейное дело в Узбекистане. – Ташкент: Фан. 1975. – С.173; Шу муаллиф. Маданий ёдгорликлар хазинаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 270 б.;

19. Чабров Г. Узбеки-археологи дореволюционного Туркестана//Звезда Востока. 1957. №1. – С.144-146.

20. Лунин Б.В. Узбекский археолог-любитель и собиратель древностей Акрам-Палван Аскаров//Известия АН УзССР. Серия общественных наук, Ташкент, 1960. № 6. – С. 66-76; Шу муаллиф. Иван Иванович Умняков как учёный-востоковед и общественный деятель//История материальной культуры Узбекистана. Вып. 3. – Ташкент: Наука, 1962. – С. 158-167; Шу муаллиф. Самарканский любитель старины и собиратель древностей Мирза Бухари //Общественные науки в Узбекистане. 1963. №6. – С. 32-40; Шу муаллиф. О нумизматической коллекции узбекского собирателя древностей Акрама Аскарова (по архивным данным) //История материальной культуры Узбекистана. Вып. 5. – Ташкент: Наука, 1964. – С. 233-246; Шу муаллиф. Самаркандский любитель древностей и каллиграф Абу Са'ид Махзум // История материальной культуры Узбекистана. Вып.7. – Ташкент: Наука, 1966. – С. 176-184; Шу муаллиф. История Узбекистана в источниках, в сообщениях путешественников и ученых (20-80-е гг.. XIX в.). – Ташкент: Фан, 1990. – 188 с.

21. Абдураимов М. М. Саиджоновнинг илмий мероси //Шарқ юлдузи. 1972. № 9. – Б.130-139; Шу муаллиф. Ёш бўлса ҳам бош бўлган эди //Фан ва турмуш. 1974. №4. – Б. 32-33.

22. Ғуломов Я.Ғ. Некоторые итоги археологических работ в Узбекистане в 1967-1978 гг. // История материальной культуры Узбекистана. Вып. 9. – Ташкент: Наука, 1972. – С. 3-10; Мухамеджанов А., Мирзаахмедов Дж. Адылов Ш. Керамика нижних слоев Бухары //История материальной культуры Узбекистана. Вып. 17. – Ташкент: Наука, 1982. – С. 81-96; Мухамеджанов А.Р. Стратиграфический раскоп на цитадели Бухары //История материальной культуры Узбекистана. Вып.18. – Ташкент: Наука, 1983. – С. 60-64.

23. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). – Ташкент: Издательство Академии наук Узбекской ССР, 1958. – 150 с.; Шу муаллиф. Позднефеодальный город Бухара XIX – начало XX вв. – Ташкент: 1962. – 195 с.; Шу муаллиф. Бухара XIX-начало XX в. (Позднефеодальный город и его население) – Москва: Наука, 1966. – 329 с.; Шу муаллиф. Очерки по истории среднеазиатских городов// История и культура народов Средней Азии. – Москва: Наука, 1976. – С.132-148.; Шу муаллиф. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи с историей кварталов). – Москва: Наука, 1976. – 363 с.

24. Авалов М.М. История социалистической Бухары (1946-1975 гг.). Дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1981. – 210 с.

25. Джаббаров Б. Возникновение и развитие исторического краеведения в советском Узбекистане (1918-1932 гг.) Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1974. – 20 с.

26. Набиев Р. Тарихий ўлкашунослик . – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 156 б.

27. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 27 июлдаги "Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўгрисида"ги қарори. https://www.lex.uz

28. Алимова Д. История как история, история как наука. Т. I. Ташкент: Узбекистан, 2008. 277 с.; Шу муаллиф. Концепты истории Узбекистана: теория и гипотезы. Т.III. Ташкент, 2018. 640 с.

29. Горшенина С.М. Становление и развитие системы изучения истории искусств Средней Азии а Узбекистане конец XIX века первая половина XX века (историографические аспекты): Дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1996. –198 с.; Дониёров А. Этнографические исследования в Узбекистане в XX веке: основные этапы, проблемы, перспективы развития. Ташкент: Янги аср авлоди, 2005. 331 с.

30. Лунин Б.В. Ўзбекистонда ўлкашунослик тарихи //Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. 2000. - №1-2 (9-10). –Б.116-122.

31. Джаббаров И. Этнография и историческое краеведение в Узбекистане//Общественные науки в Узбекистане. 1995. №5-6-7-8. С. 156-163.

32. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. –Тошкент: Фан, 1991. – 56 б.; Шу муаллиф. Бухара – город двадцати пяти веков //Общественные науки в Узбекистане. 1997. - № 9-10-11. – С. 3-9.; Бухоро шарқ дурдонаси. (Муаллифлар жамоаси А.Муҳаммаджонов, Э.Ртвеладзе, Б.Кочнев ва б.) – Тошкент: Шарқ, 1997. – 232 б.; Қосимов Ф.Ҳ. Бухоро ва Шарқ цивилизацияси//Инсониятнинг илмий ва маданий мероси – учинчи минг йилликка. Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган халқаро симпозиум материаллари тезислари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 30-32.

33. Қосимов Ф.Ҳ. Шу муаллиф. Бухоро – жаҳон тамаддуни ўчоғи //БухДУ Илмий ахборотлари. 2004. №4. – Б. 54-59; Қосимов Ф., Рашидов У. Фохира – мўъжиза шаҳар //Мозийдан садо.2005. –№ 2 (26). – Б. 10-13; Альмеев Р. Дунё ардоғидаги шаҳар //Мозийдан садо. 2002. – № 1 (13). – Б. 8-11; Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси (1920-1924 йиллар). – Бухоро: Бухоро, 2003. –97 б.; Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. –Тошкент: Tafakkur, 2016. – 460 б.; Жуманазаров А. Бухоро таълим тизими тарихи. –Тошкент: Akademnashr, 2017. – 592 б.; Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. 1-китоб. –Тошкент: Lesson press, 2016. – 285 б.; Шу муаллиф. Бухоро тарих зарварақларида. 2-китоб. – Бухоро: Дурдона, 2018. – 210 б.

34. Содиқова Н. Ўрта Осиё музейларини шакллантириш //Мозийдан садо. 1999. – №1-2 (1). – Б.16-23; Ҳабибуллаев Н. Ўзбек музейларининг истиқболи //Мозийдан садо. 1999. – № 1-2. – Б. 12-13; Жабборов И., Раҳимова Д. Замонавий музейшуносликнинг долзарб муаммолари //Мозийдан садо. – 2003. – №1 (17). – Б.10-12; Исмоилова Ж. Музей – тарих кўзгуси //Мозийдан садо. 2003. – № 2 (18). – Б. 17-78; Левтеева Л. Юбилейные выставки в музее истории Узбекистана //Мозийдан садо. 2006. – №2 (30). – С. 34-37; Исмоилова Ж., Левтеева Л. Музейлар ўзгаришлар йўлида //Мозийдан садо. 2007. – №4(36). – Б. 36-37; Альмеев Р. Музей ва маркетинг //Мозийдан садо. 2006. – № 4 (32). – Б. 12-14; Шу муаллиф. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. – Ташкент: Издательско-полиграфический творческий дом имени Г. Гуляма, 2007. – 224 с.; Шу муаллиф. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития (1991-2000): Автореф. дис. ... док. ист. наук. – Ташкент, 2012. – 200 с.; Шу муаллиф. Музей жамғармаларини оптималлаштириш, сақлаш ва кўргазмалаштириш //Мозийдан садо. 2008. – № 2 (38). – Б. 2-3; Курязова Д.Т. Музей иши тарихи ва назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. –160 б.; Курязова Д.Т. Ўзбекистон музейлари ва уларнинг мустақиллик давридаги фаолияти (Тарих ва ўлкашунослик музейлари мисолида): Тарих фан. ном. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2009. – 30 б.; Исмоилова Ж. Музей педагогикаси: тажриба ва изланишлар //Мозийдан садо. 2014. – №1 (61). – Б.10-12; Мирвалиева Ш. Виртуал музейлар яратишнинг жаҳон тажрибаси ва Ўзбекистонда уларнинг ривожланиш истиқболлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф. Тошкент, 2019. б.

35. Альмеев Р. Некоторые вопросы музеефикации памятников древней Бухары //Из истории культурного наследия Бухары. - Вып. 2. – Бухара: Бухоро, 1994. – С. 21-37; Шу муаллиф. Бухарский музей-заповедник как фактор культурного и экономического развития региона. Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Москва, 1994. – 17 с.; Ниязова М.И. Из истории деятельности Бухарского музея (1925-1927 гг.) //Из истории культурного наследия Бухары. – Вып. 2. – Бухара: Бухоро, 1994. – С. 38-47; Арслонова Ф. Бухарский музей-заповедник и новые информационные технологии //Из истории культурного наследия Бухары. – Вып. 9. – Бухара: Бухоро, 2004. – 18-20-бетлар; Алиев Р. Бухарский

музей-заповедник и музейная аудитория //Из истории культурного наследия Бухары. – Вып. 9. – Бухара: Бухоро, 2004. – Б. 20-24.

36. Хабибулина М. Музей "История водоснабжения Бухары" //Из истории культурного наследия Бухары. – Вып. 2. – Бухара: Бухоро, 1994. – Б. 54-61; Жумаев Қ. Ситораи Моҳи Хоса халқ амалий санъати музейи //Мозийдан садо. 2003. – №1(17). – Б. 26-28; Тўраев Ҳ. Тасаввуф тарихи музейи //Мозийдан садо. 2005. – № 4 (28). – Б. 8-11; Пўлатова М. Некоторые сведения из истории дома музея Ф. Ходжаева //Из истории культурного наследия Бухары. – Вып. 9. – Бухара: Бухоро, 2004. – Б. 13-17.

37. Альмеев Р. История Бухары и Бухарского оазиса в археологических коллекциях Бухарского музея-заповедника //Из истории культурного наследия Бухары. – Вып. 8. – Бухара: Бухоро, 2002. – С. 103-113; Шу муаллиф. Бухорои Шарифнинг заргарлик санъати //Мозийдан садо. 2002. – № 3 (15). – Б. 6-9; Шу муаллиф. Пойкент етти шамдони //Мозийдан садо. 2010. – № 2-3 (46-47). – Б. 22-23; Қурбонов Ғ. Қадимги Бухоро буюмларида замон жилоси //Мозийдан садо. 2007. – №1 (34). – Б. 22-24; Бухоро музейларидаги қадимги қўлёзма дурдоналар /Нашрга тайёрловчи А.Аҳмедов. – Бухоро: Дурдона, 2017. – 100 б.

38. Некрасова Е.Г. Нижние культурные слои Бухары //Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1998. № 4-5. – С.43-51; Шу муаллиф. О нескольких старых планах Бухары //Из истории культурного наследия Бухары. –Вып. 10. – : Бухоро, 2006. – С.17-27; Шу муаллиф. Некрополь Турки Джанди в Бухаре (материалы по исторической, топографии, архитектуре и археологии) //Из истории культурного наследия Бухары. – Вып. 11. – Бухара: Бухоро, 2008. – С. 38-53; Шу муаллиф. Бухара(1) //Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. – Вып. 5. – М.: Восточная литература, 2012. – С.42-50; Шу муаллиф. Бухара (2) //Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. –Вып. 5. – М.: Восточная литература, 2012. – С. 50-56;

39. Қосимов Ф.Ҳ. Из истории археологического изучения Бухары //O'zbekiston tarixi. 2003. №3. - С. 50-58; Шу муаллиф. Академик Яҳё Ғуломов ва Бухоро қадимшунослиги //Ўзбекистон тарихи ва археология фанининг долзарб муаммолари. Республика илмий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2003. – Б. 30-31; Шу муаллиф. Ўзбек қадимшунослигининг даргаси //БухДУ Илмий ахборотлари. 2006. №1. – Б. 6-9.

40. Альмеев Р.В. Бухара-город-музей. –Ташкент: Фан, 1999. –128 с.; Жумаев Қ. Шайхул-олам ёдгорлиги //Мозийдан садо. 2002. – №3 (15). – Б. 20-23; Шу муаллиф. Ситораи Моҳи Хоса. – Тошкент: Фан, 2005. – 36 б.; Шу муаллиф. Қоракўл ёдгорликлари //Мозийдан садо. 2009. – № 4 (44). – Б.10-11 ; Левтеева Л. Бухородаги Сайфиддин Боҳарзий хонақоҳи //Мозийдан садо. 2004. – № 3 (23). – Б. 38-40; Некрасова Е.Г. Шу муаллиф. Кош мадраса (1) и Кош мадраса (2) //Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. – Вып. 5. – М.: Восточная литература, 2012. – С.79-84; Шу муаллиф. Мавзолей Саманидов //Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. – Вып. 5. – М.: Восточная литература, 2012. – С.87-89; Шу муаллиф. Магак-и' аттари //Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. –Вып. 5. – М.: Восточная литература, 2012. – С.89-93; Қиличев Р. Кўҳна Бухоро чорбоғлари //Бухоро мавжлари – 2014. №4. – Б. 52-53; Мирзаахмедов Ж. Кампир девор-қадимги Бухоронинг қудратли мудофаа воҳа истеҳкоми//Древнее наследие Бухары (Сборник научных и научно-познавательных статей) – Бухоро: Дурдона, 2016. – Б. 99-104.

41. Эргашев Б.Х., Ходжаев Л.Н. По страницам архивов (Об архиве М.Ю.Саиджанова) //Общественные науки в Узбекистане. 1993. – №11-12. – С. 47-49; Саламова Ф. Архив Мусы Саиджанова: открытия и находка //Бухарские известия. 1993, 23 апрель; Тўраев Ҳ. Мусо Сайиджоновнинг нодир икки асари //Бухоронома. – 2002 йил, 14 август; Шу муаллиф. Мусо Саиджонов //Мозийдан садо. 2014. – №1. – Б. 44-45; Казаков Б. Библиотека ученого (К 100-летию М.Саиджанова) //Бухарские известия. 1994, 9 февраль; Горшенина С.М. Муса Саиджанов-историк, археолог, искусствовед //Общественные науки в Узбекистане. 1995. №5-9. – С. 26-29; Муинов А. Мусо Саиджонов ҳаёти ва ижоди. – Бухоро: Бухоро, 2009. – 23 б.; Муҳамедова С. Мусо Саиджонов ва унинг илмий фаолияти тарихшунослиги //Бухоро мавжлари. – Бухоро, 2009. №2. - Б. 38-39; Шу муаллиф. Мусо Саиджонов //Тарихнинг номаълум саҳифалари (масъул муҳаррирлар: Б.Ҳасанов, Н.Каримов) 3-китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – Б. 205-213; Шу муаллиф. Мусо Саиджоновнинг Бухоро халқ совет республикасида иқтисодиёт соҳасидаги фаолияти //O'zbekiston tarixi. 2014. – №4. – Б. 82-89; Каримов Н. Семья Саиджановых: расцвет и истребление. //Свидетели репрессий тоталитарного режима в Бухаре: архитектура и люди. Путеводитель (рук. проекта Б.Хасанов). – Ташкент: Fan va texnologiya, 2015. С.43-48; Шу муаллиф. Мусо Саиджонов //Ижтимоий фикр.

Инсон ҳуқуқлари. 2000. - №1-2(9-10). – Б.73-75. Муҳаммедова С. Мусо Саиджоновнинг ижтимоий-сиёсий ва илмий фаолияти. Автореф. дис. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (RhD). – Тошкент, 2023. – 55 б.

42. Ставицкий Б.Я. Сергей Николаевич Юренев. – Бухара: Бухарский музей, 1996. – 28 с.; Шу муаллиф. Новый штрих к биографии Сергея Николаевича Юренева //Из истории культурного наследия Бухары. – Вып. 9. – Бухара: Бухоро, 2004. – С.141-146; Муродова Д.Ш. Тарас Фёдорович Гелахнинг ҳаёти ва илмий мероси. БухДУ илмий ахборотномаси. 2013. №1. – Б. 98-99; Курбанов Ф. П.Е.Корнилов: годы работы в Бухарском Государственном музее //Актуальные вопросы развития искусствоведения в России, странах СНГ и тюркского мира. – Казань, 2017. – С. 108-111; Холназарова Л. Маҳаллий ўлкашуносларнинг илмий меросида тарихий топография ва меъморий обидалар тарихи. – Бухоро: Бухоро, 2019. –72 б.

43. Тўраев Ҳ. Шу муаллиф. Шарифжон Махдум Садр Зиё //Бухоро мавжлари журнали. 2005. – №1. – Б. 32; Шу муаллиф. Шарифжон Махдум Садр-и Зиё ва унинг илмий мероси //Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2008. – №1. – Б.33-34; Вохидов Ш., Чориев З. Садри Зия и его библиотека. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 251 с.; Охунжонов Э. Садри Зиё кутубхонаси //Kutubxona.uz. –Тошкент, 2014. №4 (24).– Б. 29-32; Раззоқов А., Раҳимов К. Мирзо Салимбек қолдирган мерос //Мозийдан садо. 2006. –№ 1 (29). – Б. 42-45; Холназарова Л.С. XIX – XX аср бошларида Бухоро амирлигида китобат ва кутубхоначилик тарихи.: Тарих фан. номзоди дис. ... – Тошкент, 1996. – 126 б.; Шу муаллиф. Бухородаги шахсий кутубхоналар //Мозийдан садо. 2006. – № 1 (29). – Б. 46-48.

44. Остонова Г. Бухородаги қўлёзмалар бозори //Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2004. – №3. – Б. 204-206; Шу муаллиф. Аждодлар меросини ўрганиб (тарихий меросимиз тадқиқотчиси) //Имом ал-Бухорий сабоқлари. 2005. – № I. – Б. 53-54; Рахмонов К. "Бухоро ахбори" ва "Озод Бухоро" газеталари–Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихини ўрганиш манбаси: Тарих фан. номзоди дис. ... – Тошкент, 2009. – 180 б.

45. Даминова З. Бухоронинг сўнгги тарихчиси //Мозийдан садо. 2003. №2 (18). – Б. 42-43; Масалиева О. Амир Музаффарнинг тарихнавис ўғиллари //Мозийдан садо. 2004. – №4 (24). – Б. 30-31; Зоҳидова С.А. XIX аср охири - XX аср бошларида Бухорода шаҳар маданияти тараққиёти (Носируддин ибн амир Музаффарнинг "Туҳфат уз-зоирийн" асари маълумотлари асосида): Тарих фан. номзоди дис. ... – Тошкент, 2009. – 160 б.; Вохидов Ш.Х. Жизнь, посвященная вечности. О цареевиче Мухаммад Сиддик Хашмате, сыне эмира Музаффар (1864-1932): жизнь и научное наследие //Молодой учёный. – М., 2015. –№15. – С.494-501.

46. Ражабов Қ. Бухоро вилояти тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – 156 б.; Ражабов Қ., Ҳайитов Ш., Содиқов Ф. Бухоро тумани тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – 52 б.; Ражабов Қ., Раҳмонов К. Вобкент тумани тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – 76 б.; Ражабов Қ., Жамолова Д. Когон тумани тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – 48 б.; Ражабов Қ., Қандов Б. Пешкў тумани тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – 48 б.; Ражабов Қ., Муҳамаджонова Л. Ромитан тумани тарихи. Қисқача маълумотнома. –Тошкент: Tafakkur, 2015. – 64 б.; Ражабов Қ., Бобомуродов К. Шофиркон тумани тарихи. Қисқача маълумотнома. –Тошкент: Tafakkur, 2015. – 128 б.; Ражабов Қ., Рашидов У., Рашидов О. Ғиждувон тумани тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Tafakkur, 2015. – 80 б.;

47. Раҳимов Ж. Ўқувчиларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда тарихий ўлкашунослик манбаларидан фойдаланишнинг педагогик асослари: Педагогика фан. номзоди дис. ... – Тошкент, 2011. – 151 б.

48. Академик Яҳё Ғуломов номидаги Ўзбек халқи ва унинг давлатчилиги тарихи Республика илмий семинари йиғилишлари//Ўзбекистон республикаси Фанлар академияси Тарих институти нашрлари. Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2016. Б. 279-287.